

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1.5 barobarga ko'proq.**

2018 yil 1 fevral holatiga Namangan viloyatida 300 dan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0.3 foizga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28.4 foizga ko'paygan hamda ularning soni 285 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 0.2 foiz (44 birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19996 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (41 foiz), Chust (7,8 foiz), Namangan tumani (7,2 foiz) va To'raqorg'on (5,9 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



*Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Namangan viloyati</b>	<b>21074</b>	<b>100</b>	<b>19996</b>	<b>100</b>
Mingbuloq tumani	796	3,8	786	3,9
Kosonsoy tumani	1195	5,7	1104	5,5
Namangan tumani	1512	7,2	1435	7,2
Norin tumani	790	3,7	765	3,8
Pop tumani	1134	5,4	1045	5,2
To'raqo'rg'on tumani	1260	6,0	1180	5,9
Uychi tumani	1162	5,5	1149	5,7
Uchqo'rg'on tumani	1027	4,9	1013	5,1
Chortoq tumani	1025	4,9	978	4,9
Chust tumani	1663	7,9	1558	7,8
Yangiqo'rg'on tumani	1005	4,8	960	4,8
Namangan sh.	8505	40,4	8023	40,1

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,9 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,1 foizni tashkil etganligini koresatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,0 foiz savdoda, 19,7 foiz sanoatda, 7,2 foiz qurilishda, 7,3 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 foiz tashish va saqlash, 1,5 foiz axborot va aloqa, 2,2 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,5 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p.), savdoda (-0,9 f.p.), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+2,1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), qurilishda (-0,3 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0,1 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,3	-1,1
Savdo	24,0	24,9	-0,9
Axborot va aloqa	1,5	1,7	-0,2
Sanoat	19,7	17,6	2,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,3	7,2	0,1
Qurilish	7,2	7,5	-0,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	3,9	0,1
Tashish va saqlash	3,6	3,4	0,1
Boshqa turlari	30,5	30,6	0,1

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 104 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga yoki 15,4 % ga o'sgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 45 ta (43.2 foizi), Uychi tumani 9 ta (8,6 foiz) va Namangan tumani 8 ta (7,7 foiz), Pop tumani 7 ta (6,7 foiz), Chust tumani 6 ta (5,8 foiz), Kosonsoy tumani 6 ta (5,8 foiz), Chortoq tumani 7 ta (6,7 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Mingbuloq tumanida 1 ta (1,0 foiz), Norin tumani 3 ta (2,9 foiz), Uchqo'rg'on tumani 3 ta (2,9 foiz) va Yangiq'org'on tumani 3 ta (2,9 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 78 ta (75,0 foizni), savdoda 8 ta (7,7 foizni), boshqa turlarida esa 9 ta (8,7 foizni) tashkil qilgan, eng kamlari esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (3,8 foizni), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (1,9 foizni), Tashish va saqlashda 1 ta (1,0 foizni), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (1,9 foizni) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda Axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15.9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 1,1 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 6896 tasi (43,2 %) Namangan shahriga, 1246 tasi (7,8 %) Chustda, 1216 tasi (7,6 foizi) Namangan tumanida hamda 905 tasi (5,7 foizi) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5208 tasi (30,8 %) – savdoda, 4013 tasi (23,7 %) - sanoatda, 1556 tasi (9,2 %) - qurilishda, 1523 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 861 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 727 tasi (4,3%) - tashish va saqlashda, 861 tasi (5,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 362 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2379 tasi (14,0%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holati bilan 258 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,8 foizga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (97 ta), Chust (22 ta), To'raqorg'on (16 ta), Kosonsoy (16 ta), Mingbuloq (15 ta), Chortoq tumanlarida (15 ta) tashkil etilgan. Eng kam Namangan tumanida (14 ta), Norin, Uchqorg'on, Yangiqorg'on tumanlarida (12 tadan) hamda Pop (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (93 ta), savdoda (66 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (27 ta) qurilishda (17 ta) va tashish va saqlashda (15 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9 ta), axborot va aloqada (7 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



### Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 267 tani tashkil etib, ulardan 259 tasi yoki 0,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **0,7%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 51,4 % yoki 133 tasi sanoat, 14,7 % yoki 38 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,0 % yoki 31 tasi savdo, 10,8 % yoki 28 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 2 tasi qurilish, 0,4 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,5 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,7 % yoki 20 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: A.Botirov  
(0569) 227-84-96**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**